XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-14-85-6-91-K/25 Namangan shahar

2026-yil uchun Namangan shahar budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksiga asosan hamda Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25- son qaroriga muvofiq Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qaroriga muvofiq Namangan shahar budjetining 2026-yilgi daromadlari 369 861 272 ming so‘m, umumiy xarajatlari esa 369 861 272 ming so‘m, shundan Namangan shahar 178 300 262 ming so‘m, Davlatobod tumani 108 266 656 ming so‘m va Yangi Namangan tumani 83 294 354 ming so‘m, shuningdek 2026-yil uchun shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 173 131 ming so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2026-yil uchun Namangan shahar budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun Namangan shahar budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

2026-yil uchun Namangan viloyati va Namangan shahar budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Namangan shahar jami mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi 5 588 121 ming so‘m, shundan Namangan shahar uchun 3 249 276 ming so‘m, Davlatobod tumani uchun 1 428 896 .ming so‘m va Yangi Namangan tumani uchun 909 949 ming so‘m etib belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

4. Ushbu qaror “Namangan sadosi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda rasmiy e’lon qilingandan keyin bir kun ichida hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash shahar hokimining birinchi o‘rinbosari D.Umurzakovga va qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Isakovga yuklansin.

Sessiya raisi **SADRITDINOV NASRITDIN FAXRIDDINOVICH**

Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-85-6-91-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan shahar byudjeti daromadlarining 2026 yilgi prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘m

№	DAROMAD TURLARI	Kontingent	shundan,				Mahalliy
			MRI	Hudud	shundan		
					DSB	DSI	
I.	**JAMI**	**2 363 239 652**	***472 032 000***	***1 891 207 652***	***1 632 605 000***	***258 602 652***	**369 861 272**
1	Foyda solig‘i	173 042 000	*52 476 000*	*120 566 000*	*120 566 000*		12 056 600
2	*Norezidentlar foydasidan soliq*	*7 881 000*	*6 278 000*	*1 603 000*	*1 603 000*		
3	Aylanmadan olinadigan soliq	49 994 000		*49 994 000*		*49 994 000*	13 998 320
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	904 494 000	*159 797 000*	*744 697 000*	*698 602 000*	*46 095 000*	79 896 700
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	7 829 000	*1 799 000*	*6 030 000*	*3 960 000*	*2 070 000*	6 030 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	520 497 000	*169 767 000*	*350 730 000*	*350 730 000*		3 507 300
6	**Aksiz solig‘i**	**126 569 000**	***32 506 000***	***94 063 000***	***94 063 000***		**4 703 150**
	yakuniy iste’molchi (benzin,dizel va gaz uchun)	*126 569 000*	*32 506 000*	*94 063 000*	*94 063 000*		*4 703 150*
7	**Mol-mulk solig‘i**	**186 461 000**	***23 541 000***	***162 920 000***	***72 149 000***	***90 771 000***	**128 920 400**

	yuridik shaxslar	*108 540 000*	*23 541 000*	*84 999 000*	*72 149 000*	*12 850 000*	*50 999 400*
	jismoniy shaxslar	*77 921 000*		*77 921 000*		*77 921 000*	*77 921 000*
8	**Yer solig‘i**	**150 514 652**	***13 722 000***	***136 792 652***	***67 610 000***	***69 182 652***	**106 548 652**
	yuridik shaxslar	*89 332 000*	*13 722 000*	*75 610 000*	*67 610 000*	*8 000 000*	*45 366 000*
	jismoniy shaxslar	*61 182 652*		*61 182 652*		*61 182 652*	*61 182 652*
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	631 000		*631 000*	*631 000*		631 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	9 613 000	*6 100 000*	*3 513 000*	*2 764 000*	*749 000*	9 613 000
11	**Boshqalar**	**233 543 000**	***7 845 000***	***225 698 000***	***223 887 000***	***1 811 000***	**9 986 150**
	DUK sof foydasidan ajratmalar	*9 849 000*	*7 845 000*	*2 004 000*	*2 004 000*		
	Davlat boji	*98 548 000*		*98 548 000*	*98 548 000*		*3 111 550*
	Yig‘imlar	*58 586 000*		*58 586 000*	*58 586 000*		*1 826 150*
	Jarimalar	*64 749 000*		*64 749 000*	*64 749 000*		*3 237 450*
	Davlat mulkini ijarasi	*1 811 000*		*1 811 000*		*1 811 000*	*1 811 000*

5. Mazkur qaror Xalq deputatlari Namangan shahar Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-14-85-6-91-K/25-son qarori bilan birga saqlansin.

6. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash shahar hokimining birinchi o‘rinbosari D.Umurzakovga va qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisiga yuklansin.

Kengash raisi **ISAKOV RUSTAM RAXMANOVICH**

Xalq deputatlari Namangan shahar
Kengashining
2026-yil 25-fevraldagi
VII-17-21-6-91-K/26 -son qaroriga
1-ilova
“Xalq deputatlari Namangan shahar
Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-85-6-91-K/25-son qarori
2-ilova

2026-yil uchun Namangan shahar budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

Ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Namangan shahar	Namangan shahar	Davlatobod tumani	Yangi Namangan tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**369 861 272**	**178 300 262**	**108 266 656**	**83 294 354**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*104 148 072*	*47 136 963*	*29 756 937*	*27 254 172*
	shundan:				
	"Mening maktabim"	*5 871 000*	*3 213 600*	*1 359 600*	*1 297 800*
2	Madaniyat bo‘limi	*13 174 373*	*9 447 409*	*3 032 089*	*694 875*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*14 435 305*	*7 404 760*	*3 692 083*	*3 338 462*
4	Sport bo‘limi	*18 410 477*	*9 286 013*	*9 124 464*	*0*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*3 602 016*	*1 432 527*	*1 074 582*	*1 094 907*
6	Qishloq xo‘jaligi (Veterinariya) bo‘limi	*3 744 960*	*1 987 271*	*975 560*	*782 129*
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*6 790 846*	*3 291 181*	*1 696 542*	*1 803 123*
8	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*1 029 291*	*325 770*	*178 954*	*524 567*
9	Hokimiyat	*92 976 961*	*48 819 423*	*22 617 787*	*21 539 751*
	shundan:				
	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	*45 402 928*	*25 626 928*	*9 888 000*	*9 888 000*
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*5 521 000*	*2 429 192*	*1 706 819*	*1 384 989*
	Zahira jamg‘armasi	*5 588 121*	*3 249 276*	*1 428 896*	*909 949*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 616 099*	*45 929*	*1 531 546*	*38 624*
	shundan:				
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*121 108*	*45 929*	*36 555*	*38 624*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 494 991*	*0*	*1 494 991*	*0*
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	**109 932 872**	49 123 016	34 586 112	26 223 744

”.